

## Savollar:

1. Qanday belgilar yakka tartibdagi belgi deb hisoblanadi?
2. Tovar belgisidan foydalanish deganda nimalar tushuniladi?
3. Talabnoma beruvchi tomonidan ish olib borish patent vakili orqali amalga oshirilayotgan holda Arizaning «Patent vakili» grafasida qanday ma'lumotlar keltiriladi?
4. Qanday holda arizaning «Rangi yoki ranglar uyg'unligi» grafasini to'ldirish talab etilmaydi?
5. Rasmiy ekspertizaning vazifasi nimalardan iborat?
6. Tovar belgisiga topshirilgan talabnomada nimalar bo'lishi kerak?
7. Tovar belgisini takroriy ro'yxatdan o'tkazish shartlari haqida tushuncha bering.
8. Ogohlantiruvchi tamg'alash deganda nima tushuniladi?
9. Talabnoma beruvchi talabnomaga qanday o'zgartirishlarni kiritishi mumkin?
10. Tovar belgilari bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga aynan o'xshash bo'lgan belgilar ekspertiza jarayonida aniqlansa va bu belgi ro'yxatdan o'tkazishi uchun tovar belgisi egasi roziligi so'raladi. Rozilik xatida nimalar ko'rsatilishi lozim?
11. So'zli belgilar o'xshashligi qanday turlarga bo'linadi?
12. Tovarlar va (yoki) xizmatlar ro'yxatini tekshirish davomida ekspert nimalarga ahamiyat berishi lozim?
13. Jamlama belgini o'xshashligini aniqlashda ular qanday belgilar bilan taqqoslanadi?
14. Davlat ekspertizasidan o'tkazish natijalari ustidan shikoyat berish mumkinmi?
15. Talabnoma beruvchi ishtirokida talabnomani ko'rib chiqish mumkinmi?
16. Tovar belgisi ekspertizasida solishtirilayotgan tovarlarning bir jinsli ya'ni bir turdagi tovarlar ekanligiga e'tibor beriladimi?
17. Qoidalarga ko'ra tovar belgilari ekspertizasida «aynan bir xil» va «adashtirib yuborish darajasida o'xshashlik» tushunchalariga izoh bering.
18. Chaqirib olingan talabnoma huquqiy ahamiyatga ega bo'ladimi?
19. «KENT OF LONDON» tovar belgisi Londonning A kompaniyasiga tegishli bo'lib, ushbu tovar belgisini Londonning A kompaniyasi Rossiyaning B kompaniyasiga tovar belgisiga doir mutlaq huquqni o'tkazishi mumkinmi?
20. Davlat ekspertizasining so'roviga Javob taqdim etish muddati uzaytirilishi mumkinmi?
21. Tovar belgisining egasi guvohnoma olgandan so'ng u barcha tovar va xizmatlar uchun muhofazaga ega bo'la oladimi?
22. Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish muddati qancha?
23. Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat boji qancha?
24. Tovar belgilarining qanday turlari va shakllari mavjud?
25. Hammaga ma'lum tovar belgisini huquqiy muhofaza qilish tartibini tushuntiring.

26. Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari (TIQQMlari)ni tashkil etish bo'yicha loyihani qachon va kim tomondan joriy qilingan?

27. Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad nimada?

28. Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari loyahasini asosiy yo'nalishlarini aytib bering ?

29. Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari vazifalarini aytib o'ting?

30. O'zbekiston Respublikasi qachon Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari tarmog'ini tashkil etish loyahasiga a'zo bolgan?

31. O'zbekiston Respublikasi Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari tarmog'ini tashkil etish loyahasiga qo'shilganligini tasdiqlovchi hujjatning nomi aytib oting?

32. O'zbekiston Respublikasida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari tarmog'ini tashkil etish loyahasini tadbqiq qilishga oid me'yoriy hujjatlarni (farmon, qaror va h.z.) aytib o'ting?

33. O'zbekiston Respublikasida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari tarmog'ini tashkil etishda imzolanadigan hujjatlarni aytib oting?

34. Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari orqali foydalanuvchilarga ko'rsatiladigan qanday xizmatlar amaga oshirilishi mumkin?

35. TIQQMlarini tashkil etishda tashkilotlar va muassasalar uchun afzalliklarni aytib oting?

36. Ta'lim muassasasida tashkil etilgan Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari qanday maqomga ega?

37. Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlariga mas'ul xodimlar kim tomonidan va qanday tayinlanadi?

38. Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazini tashkil qilishda kimlar o'rtasida hamkorlik to'g'risida"gi Bitim tuziladi hamda ushbu Bitim qancha muddat amal qiladi?

39. O'zbekiston Respublikasida nechta Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazini tashkil etilgan va ular qaysi sohalarni qamrab olgan?

40. Bugungi kunda Jahonda tashkil etilgan Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazini soni va nechta davlatlarni qamrab olganligi haqida ma'lumot bering?

41. Sanoat namunasi nima?

42. Sanoat namunasi patentga layoqatlilik shartlari qanday?

43. Sanoat namunasi muallifi kim bo'lishi mumkin?

44. Sanoat namunasi talabnoma patent vakili yoki boshqa ishonchli shaxs orqali topshirilsa qanday hujjat taqdim etiladi?

45. Davlat ekspertizasi qanday bosqichlardan iborat?
46. Rasmiy ekspertizasi qachon boshlanadi va shu muddatni oldinroq o'tkazish mumkinmi?
47. Talabnoma beruvchiga so'rovnoma jo'natilganda javob qanday muddatda beriladi?
48. Sanoat namunasiga berilgan patent nechchi yil amal qiladi?
49. Sanoat namunasiga berilgan patentni uzaytirish uchun qanday maxsus talablar o'rnatilgan?
50. Sanoat namunasining ilmiy-texnika ekspertizasi qachon o'tkaziladi?